7-MA’RUZA
DEVIANT XULQ-ATVOR

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

PROFESSOR

ZARIFBOY IBODULLAYEV

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

www.asab.uz

https://t.me/izrmed

DEVIANT XULQ-ATVOR NIMA?



- **Deviant xulq-atvor** (lot. *deviation* – og‘ish) – ijtimoiy me’yorlarga zid bo‘lgan xulq-atvor. Deviant xulq-atvor “ijtimoiy deviatsiya” deb ham ataladi. Deviant xulq-atvor katta ijtimoiy-psixologik muammoga aylanib bormoqda.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

DEVIATSIYA VA JAMIYAT

Bu toifaga kiruvchi shaxslar o‘zlarini jamiyat qonunlariga zid ravishda tutishadi, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishmaydi va nafaqat atrofdagilar, balki o‘ziga ham ziyon yetkazadigan xatti-harakatlar qilishadi.

Bunday xulq-atvor og‘ishlari o‘ta turg‘un ravishda namoyon bo‘ladi va erta psixokorreksiya qilinmasa yillab davom etadi. Shu bois ularning aksariyati ijtimoiy xavfli guruhga kiritiladi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

MAKTAB VA DEVIANT XULQ-ATVOR

MAKTAB VA DEVIANT XULQ-ATVOR

Maktabda xulq-atvori o‘zgargan bolaga ko‘zi tushgan o‘qituvchi aksariyat hollarda uni ma’naviyat xonasiga olib kirib tarbiyalashga urinadi. Odatda, erta yoshlikdan rasm solish, haykal yasash, murakkab arifmetik masalani yecha olish, she’riy misralar bitish, musiqa chalish kabi hislatlarga ega bolalar g‘ayritabiiy xulq-atvorga ega bo‘lishadi. Ularning aksariyati “bebosh bola” laqabini olib maktab o‘qituvchisidan dakki yeb yurishadi. Maktab pedagoglari va psixologlari bunday tug‘ma qobiliyatli bolalarni yaxshilab o‘rganishlari va ularga barcha zarur sharoitlarni yaratib berishlari kerak.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

BU TASHXIS QACHON QO’YILADI?

Deviant xulq-atvor tashxisi

Deviant xulq-atvor tashxisi bola 8-10 yoshdan oshgandan keyin qo‘yiladi. Mutaxassislar fikricha, ushbu patologiyaning dastlabki alomatlari 5-6 yoshdan boshlab ko‘zga tashlanadi. Deviant xulq-atvor o‘smirlik davrida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu muammo klinik psixologlar, psixiatrlar va, ayniqsa sotsial psixologlar uchun tadqiqot ob’yekti hisoblanadi. Shunday bo‘lsa-da, bunday yoshlar ushbu mutaxassislarga emas, o‘zlarining antisotsial xatti-harakatlari bilan huquqni muhofaza qilish organlari qo‘liga tushib qolishadi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

NEGATIV VA POZITIV DEVIATSIYA

NEGATIV VA POZITIV DEVIATSIYA

Deviant xulq-atvorning negativ va pozitiv turlari farqlanadi. Negativ deviatsiyaga ahloqsiz ishlarga qo‘l urish, o‘ziga va boshqalarga qasddan tan jarohati yetkazish, tajovuzkorlik, o‘g‘rilik, giyohvandlik, pornoqaramlik, spirtli ichimliklarga ruju qo‘yish, o‘zgalar mol-mulkiga ziyon yetkazish kabi salbiy xatti-harakatlar kiradi. Keyinchalik “xalqlar dohiysi” darajasiga yetgan Gitler, Stalin, Mussolini va Saddam Xusayin kabi shaxslarda deviant xulq-atvorning negativ turi bo‘lgan.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed



POZITIV DEVIATSIYA

POZITIV DEVIATSIYA

- Pozitiv deviatsiyaga yoshlik davrida umumqabul qilingan ijtimoiy me’yorlarga sig‘maydigan aql-bovar qilmas g‘oyalar va ixtirolarga qo‘l uradigan shaxslarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Masalan, buyuk fiziklar, kimyogarlar, fazogirlar, ulamolar, shoirlar, musavvirlar, tabiblar va faylasuflarning o‘smirlik davriga nazar solinsa, ularda deviant xulq-atvorning pozitiv turini kuzatamiz. Bunday shaxslar o‘z yoshiga va o‘zi yashayotgan davrga mos bo‘lmagan qobiliyatlari bilan kattalarni hayratga solishgan.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

NEGATIV DEVIATSIYA

Deviant xulq-atvorning negativ turini mutaxassislar mukammal o‘rganishi lozim. Agar ularni erta korreksiya qilmasa, kelajada Gitler, Stalin va Mussolini kabi psixopat rahbarlar davlat tepasiga kelib millionlagan xalqlar boshiga musibatlar yog‘dirishi mumkin. Negativ deviatsiyaga ega o‘smirlar xulq-atvorini erta psixokorreksiya qilib jamiyatni bunday shaxslardan himoya qilish har bir pedagog va psixologning ishi!

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Pozitiv deviatsiyasi bor bolalardan kelajakda kuchli fizik, matematik, ixtirochi, rassom, kompozitor va boshqa yetuk kasb egalari yetishib chiqadi

Pozitiv deviatsiyasi bor o‘smirlarni izlab topib, ularga sharoit yaratib tug‘ma qobiliyatini yanada rivojlantirish zarur. Zero bunday yoshlar taraqqiyot lokomotivi hisoblanadi va insoniyat uchun katta xizmat qilishadi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Aql bovar qilmas tug‘ma qobiliyat egalari



Pozitiv deviatsiyaga yoshlik davrida umumqabul qilingan ijtimoiy me’yorlarga sig‘maydigan aql-bovar qilmas g‘oyalar va ixtirolarga qo‘l uradigan shaxslarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Masalan, buyuk fiziklar, kimyogarlar, fazogirlar, ulamolar, shoirlar, musavvirlar, tabiblar va faylasuflarning o‘smirlik davriga nazar solinsa, ularda deviant xulq-atvorning pozitiv turini kuzatamiz.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Qaysi jamiyatda buyuk insonlar bo‘lmasa, bunday jamiyat boshsiz chavandoz degani

Bunday shaxslar o‘z yoshiga va o‘zi yashayotgan davrga mos bo‘lmagan qobiliyatlari bilan kattalarni hayratga solishgan, g‘ayritabiiy kashfiyotlari va fikrlari uchun quvg‘inga ham solingan. Bunga Alisher Navoiy, Bobur, Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Farobiy, Mashrab, Najmiddin Kubro, Mikel Anjelo, Mosart, Isaak Nyuton, Nikola Tesla, Tomas Edison, Ernst Refzerford kabi buyuk shaxslarni misol qilib keltirish mumkin.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Rustam Qosimjonov kelajakda buyuk shaxmatchi bo‘lishi uchun jamiyat harakat qilganmidi?

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Deviant xulq-atvor sabablari

1) Oiladagi nosog‘lom muhit
2) Jamiyatdagi nosog‘lom muhit
3) Otasiz yoki onasiz katta bo‘lish
4) Qashshoqlik
5) Davlatni savodsiz odamlar boshqarishi
6) Yoshlar siyosatini xo‘jako‘rsinga olib borish
7) Ma’naviyatdan moddiyatni ustun qo‘yish

Oiladagi nosog‘lom muhit

Oiladagi nosog‘lom muhit: ota-ona orasidagi janjallar, farzandlarni otasiz yoki onasiz boqish, bolaga bemehr bo‘lish, ota yoki onaning uzoq muddat muxojirotda bo‘lishi, o‘gay ota yoki o‘gay ona qo‘lida tarbiya ko‘rish, farzandlarga bir xil munosabatda bo‘lmaslik, ya’ni birini yaxshi ko‘rish, boshqasini kamsitish, ularni o‘z holiga tashlab qo‘yish va nazorat qilmaslik, myehnatga o‘rgatmaslik, ilmga qiziqtirmaslik.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Oiladagi qashshoqlik

Qashshoqlik

- Oiladagi qashshoqlik, ya’ni o‘z farzandlarini vitaminlarga boy oziq-ovqatlar bilan ta’minlay olmaslik, kiyim-kechak olib bera olmaslik, bolalar dam olish maskanlari va sport to‘garaklari yubora olmaslik, teatr, kino va hiyobonlarga olib bora olmaslik, zarur kitob-daftarlar bilan ta’minlay olmaslik, dunyoviy va diniy ilmlarni o‘zlashtirishga imkonsizlik. Demak, yaxshi ota-ona bo‘lsa-da, o‘sib-ulg‘ayib kyelayotgan bolani ta’minlashga va tarbiyalashga imkoni bo‘lmasa, bunday farzandlarda xulq-atvorning negativ deviatsiyasi rivojlanishi mumkin.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Ahloqsiz ota-ona

- Ota-onaning ahloqsiz bo‘lishi, giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarga ruju qo‘yishi, ruhiy kasalliklar bilan og‘riganligi, kattalar tomonidan nojo‘ya xatti-harakatlarning bolalar ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lishi.

Giyohvandlik – asr vabosi

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Psixogenetik omillar



Deviant xulq-atvorning shakllanishida ba’zan genetik omillar ham ahamiyatli ekanligi ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z isbotini topgan. Masalan, psixopatizatsiya yoki shizoid tipga ega ota-onalarning farzandlari va qarindoshlari orasida deviant xulq-atvorga ega bolalar yetishib chiqadi. Mutaxassislar bu yerda genetik omillarga asosiy urg‘uni berishadi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Jamiyatdagi adolatsizlik

- Jamiyatdagi adolatsizlik, ya’ni ta’lim maskanlarida bolalarni diskriminatsiya qilish, ommaviy korrupsiyaning avj olishi, boylar va qashshoqlar orasida tabaqalanish kuchayib borishi, ilmsiz insonlarning davlat boshqaruviga chiqib olishi, farovon turmush haqidagi yolg‘onlar, o‘smirning ko‘z o‘ngida zo‘ravonlar tomonidan ota-onasining mol-mulklari tortib olinishi, do‘konlari buzib tashlanishi, ekin yerlari surib tashlanishi, o‘zgacha fikrlovchi insonlar ta’ziyqqa olinishi, kuch ishlatar tizimlari tomonidan ko‘chada tutib ketilgan yoshlarning sud-so‘roqsiz urib o‘ldirilishi holatlari va h.k. Bunday holatlarning yoshlar ko‘z o‘ngida ro‘y berishi va ayniqsa millionlab insonlar ko‘radigan ijtimoiy tarmoqlarga yoyilishi deviant xulq-atvorning negativ turi shakllanishiga katta turtki bo‘ladi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Tarixga bir nazar

Bu atamani kim taklif qilgan?

Xulq-atvor og‘ishlari faylasuflar tomonidan qadimdan o‘rganib kelinsa-da, fransuz olimi Emil Dyurkgeym (1858-1917) deviantologiya asoschisi hisoblanadi. Olim 1897-yili “O‘z joniga qasd qilish” nomli asar yozadi va fanga “anomiya” degan tushunchani kiritadi. Fransuzchadan anomie – qonunsizlik, me’yorsizlik degan ma’nolarni anglatadi. E. Dyurkgeym anomiya deganda jamiyatdagi qadriyatlarning chetga surilishi, insoniy fazilatlarning yo'qolishi, odamlar o‘z xatti-harakatlari bilan ijtimoiy me’yorlardan chiqib ketayotgani haqida yozgan. Anomiya – bu tibbiy emas, ko‘proq ijtimoiy muammo deb yozgan, olim.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Bu mavzu hammani qiziqtirib qo‘ydi



E. Dyurkgeym ta’limoti keyinchalik sotsiologlar tomonidan o‘rganib boshlandi. Ayniqsa, bu yo'nalish sotsiolog olimlar L. Klages (1872-1956), Klayv S. Luis (1898-1963), Robert Merton (1910-2003), Nil Smelzer (1930-2017), Gilinskiy Ya.I. (1934) tomonidan deviantologiya bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Ular turli ijtimoiy guruhlarda tashqi omillarning xulq-atvor deviatsiyasiga salbiy ta’siri bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishdi, ilmiy asarlar yozishdi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Kelajak bugundan boshlanadi...

Bugungi kunda yoshlar ongiga bo‘layotgan internet hujumlar, jamiyatdagi parchalanishlar, ijtimoiy tarmoqlarda ahloqsizlik, gomoseksualizm, pornoindustriya rivojlanib borishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali har bir xonadonga kirib kelishi, ijtimoiy tabaqalanish, ommaviy migratsiyalar, davlatlararo urushlar deviantologiya oldiga yangi va yangi vazifalarni qo‘ymoqda va yangi tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo qilmoqda.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Deviant xulq-atvor belgilari (1)

- Umumqabul qilingan ijtimoiy me’yorlarga va rasmiy qonun-qoidalarga zid xatti-harakatlar qilish, o‘ziga va atrofdagilar mol-mulkiga ziyon yetkazish va bu holatning doimiy ravishda ro‘y berib turishi, insonlarni haqorat qilish va doimo urush-janjallar markazida bo‘lishi, yonida sovuq qurollar olib yurishga moyillik;

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Deviant xulq-atvor belgilari (2)

- Ruhiy kasalliklar (shizofreniya va shu kabilar) va ruhiyat buzilishi bilan namoyon bo‘luvchi bosh miya kasalliklari bilan og‘rimagan bo‘lishi, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarga ruju qo‘ygan bo‘lishi, gomoseksualizm, pornoqaramlik, ahloqsiz xatti-harakatlarga moyillik.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Deviant xulq-atvor belgilari (3)

- Ota-onasi, aka-ukalari, pedagoglar va boshqalarga agressiv munosabatda bo‘lish, doimo norozi bo‘lib yurish, minnatdorchilik hissining yo'qligi, mehnatdan qochish, yolg‘on so‘zlash. Maslahat bergan ota-onasi yoki ustozini yomon ko‘radi, biroq o‘zi aql o‘rgatishni xush ko‘radi.

- Hissiy reaksiyalarning noturg‘unligi, tez-tez affekt holatlarga tushib turish, kayfiyatning bir yomon bir yaxshi bo‘lib turishi (disforiya), to‘g‘ri maslahat bergan yoki tanqid qilgan odamni yomon ko‘rib qolishi, kayfiyati buzilib jazavaga tushishi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Deviant xulq-atvor belgilari (4)

- **Hufiyona hayotga moyillik.** Bunday o‘smirlar yolg‘izlikni yaxshi ko‘rishadi, ota-onasi bilan birga ovqatlanishni xush ko‘rishmaydi, xonasiga qamalib olib internetga qaram bo‘lib qolishadi, pornofilmlarga moyilligi kuchli bo‘ladi, ko‘p dars qoldiradi, ko‘chaga chiqib bolalar bilan o‘ynamaydi, janjalkash odati tufayli do‘stlari bilan chiqishmaydi, nari borsa 1-2 ta bola bilan do‘st tutishadi xolos. U ham o‘ziga o‘xshagan bo‘ladi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Deviant xulq-atvor belgilari (5)



- **Psixosomatik simptomlar.** Bunday shaxslar sog‘lom turmush tarziga rioya qilmaganliklari bois, nimjon, rangi-ro‘yi sarg‘aygan, ishtahasi so‘ngan bo‘ladi. Bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, uyqusizlik, yurak urib ketishi, fobiya, depressiya, nafas yetishmagandek bo‘lishi, qorin sohasida og‘riqlar, bulimiya yoki anoreksiya, erektil disfunksiya, bo‘g‘imlarda og‘riqlar kabi shikoyatlari ko‘p bo‘ladi. Ba’zilari ota-onasi ketiga tushib doktorma-doktor yurishadi. Biroq ularning aksariyati psixologga borishni uncha xush ko‘rishmaydi va yaqinlarining zo‘rlovi bilan borishadi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Deviant xulq-atvor psixoterapiyasi

Deviant xulq-atvor psixotyerapiyasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Asosan bixevioral psixoterapiya, psixodinamik terapiya va gipnoterapiya qo‘llaniladi. Shuningdek, artterapiya, biblioterapiya, mehnat terapiyasi, sport terapiyasi qo‘llaniladi. Albatta klinik psixolog bunday o‘smirlarning ota-onalari bilan ham ishlashlari zarur. Uzoq davom etuvchi psixoreabilitatsiya klinik psixolog shug‘ullansa, ijtimoiy hayotga adaptatsiyasi bilan sotsial psixologlar shug‘ullanishadi.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

RAQAMLI DUNYO VA BOLA

Bugungi kunda ma’lumki, smartfon, planshet va noutbuklar yosh bolalardagi fikrlash faoliyatining fiziologik va biologik qonunlarga mos ravishda riojlanishini izdan chiqarib yubormoqda. Odam biologik muhitdan uzoqlashib, androidlar dunyosiga g‘arq bo‘lmoqda, u ko‘proq robotlar dunyosiga qaram bo‘lib bormoqda. Bunday taraqqiyotning salbiy ta’sirlari bolada hozirdan ko‘zga tashlanmoqda, ularda reaktiv nevroz, depressiya, apatiya, fobiya va hatto fikrlash torayishi kabi patologik holatlar kuzatilmoqda. Katta yoshdagilarda uchraydigan psixosomatik buzilishlar bolalar va o‘smirlarda ham ko‘payib bormoqda.

www.asab.uz
https://t.me/izrmed

Deviant xulq-atvor profilaktikasi

Deviant xulq-atvor profilaktikasi oiladan, ya’ni ota-onalar tarbiyasidan boshlanadi. Turmush qurayotgan yoshlar tibbiy, genetik va psixologik tekshiruvlardan o‘tishlari lozim. Bolalarda deviant xulq-atvor shakllanib bormasligi uchun yosh ota-onalar tarbiyali bo‘lishi, iqtisodiy ta’minlangan bo‘lishi, bog‘cha va maktabda bolalar diskriminatsiyaga uchramasligi, tibbiy-profilaktik tekshiruvlardan o‘tib turishi, maktab psixologlari boladagi xulq-atvor buzilishlarini erta aniqlab ularni korreksiya qilish bilan tizimli shug‘ullanib borishlari zarur. Davlat va jamiyat barkamol avlod tarbiyasi uchun barcha iqtisodiy resurslarni ishga solishi, jamiyatda adolat hukmron bo‘lishi, bolalar haq-huquqlarini himoya qilib kelinishi zarur.

MA’RUZA MUALLIFI

Zarifboy Ibodullayev – tibbiyot fanlari doktori, professor. ”Asab kasalliklari”, ”Tibbiyot psixologiyasi”, “Umumiy nevrologiya”, “Insult va koma”, “Epilepsiya”, “Asab va ruhiyat” nomli darsliklar, monografiyalar va o’quv qo’llanmalar muallifi. Uning asosiy ilmiy yo’nalishlari – “Nevrologiya, neyropsixologiya va tibbiy psixologiya”

www.asab.uz
https://t.me/izrmed